

Nutq madaniyatining tibbiyotda tutgan o'rni

(Navoiy asarlari va Ibn Sino faoliyati misolida)

Teshabayeva Mahliyo Nurillo qizi,

Ishoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari

instituti Matbuot kotibi

Zamonaviy tabiiy fanlarning paydo bo'lish sabablari va rivojlanish jarayonlarini o'rganish tabobat (medisina) fanining juda qadimiy tarixga ega, degan xulosa chikarish imkonini beradi. Chunki, turli xil fanlarning paydo bo'lishi, Sharqning buyuk qomusiy olimlaridan biri Abu Rayxon Beruniy ta'biri bilan aytganda, insonlarning hayotiy zaruriyatlari va extiyojlari har xilligi bilan bog'lik. Insonlarda turli xil kasalliklarning paydo bo'lishi bilan ularni davolash zaruriyati yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida tabobat faniga ehtiyojni keltirib chiqardi.

Eramizdan oldingi 384-322-yillarda yashagan, Sharqda birinchi muallim nomi bilan mashhur bo'lgan qadimiy yunon olimi Aristotel (Arastu) falsafadan fizikani va biologiyani ajratdi. Forschadan Maxmud Xasanov (Xasaniy) tomonidan tarjima qilingan va tuzilgan «Tabobat durdonalari» kitobida Arastuning shogirdi Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) ga pandu nasihatlarini hamda tabobat va salomatlikni saqlashga bag'ishlangan masalalarni o'z ichiga olgan va nazmda yozilgan «O'n nasixat» asari keltirilgan. Kitobda uning bir necha nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanayotganligi, ammo uni nazmga soluvchining kim ekanligi va yili hozirgacha aniqlanmagani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bu turli xil tabiiy fanlar bilan bir katorda tabobatning ham alohida fan sifatida shakllanishi Arastuning ijodi bilan bog'liqligi to'g'risida guvohlik beradi. Tabobatning alohida fan sifatida keyingi rivoji, asosan. Gippokrat (3.0. 460-355 yy.), Galen (129-200 yy.) va Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy) lar tomonidan amalga oshirildi.

Abu Ali ibn Sinoning o‘rtalari asr tibbiyotida besh yuz yil davomida yagona hokimlikni ta’minlagan, tabobat fani konsepsiyaning rivojlanishida muxim o‘rinni egallagan bir qancha ilmiy asarlarining nazmda yozilganligini ko‘rsatadi. Bu bilan olim, bir tomonidan, she’rni nasrga qaraganda esda saqlab qolish osonligini bilgan holda, xalq o‘rtasida tabobatni ilmiy asarlar bilangina emas, balki ularni badiiylashtirib, turli badiiy bo‘yoqlar vositasi orqali kengroq targ‘ib qilmokchi bo‘ldi. Ikkinchisi tomonidan esa, tabobat fani konsepsiyaning shakllanishida va rivojlanishida tabobat bilan adabiyot hamkorligi muhim ro‘l o‘ynashini ko‘rsatishga harakat qildi. Keyinchalik ibn Sino boshlagan bu ishlar fors klassik shoirlarining yorqin namoyandalaridan Jalolidin Rumi (1207- 1272 yy), Sa’diy Sheroziy (1210-1292yy), Abduraxmon Jomiy (1414-1492 yy), o‘zbek adabiyotining asoschisi, she’riyat mulkining sulton Alisher Navoiy (1414-1492 yy) va boshqalar ijodlarida davom etdirildi.

Ushbu maqola esa Navoiy ijodi misolida tabobat va adabiyot hamkorligining o‘rnini ko‘rsatishga bag‘ishlandi. Navoiyning ijodiy merosini o‘rganish natijalari uning tabobat faniga doir amaliy va nazariy masalalarini chuqr bilganligini, o‘z asarlarida salomatlikni saqlash va qadrlash haqidagi ajoyib tibbiy hikmatlar yozib qoldirganini hamda tabobat fanini targ‘ib qilganligini ko‘rsatadi. Xususan, Navoiy fikricha, kishining mijozni mo‘tadil bo‘lsa u hamisha salomat yuradi, mu’tadillik buzilsa kasallik paydo bo‘ladi. U to‘gri ovqatlanish kishi salomatligini saqlash uchun zarur shartlardan biri ekanligini o‘stiradi. Yoqmaydigan ovqatlarni yeyishdan tiyilish va yoqadiganlarini ham ortiqcha iste’mol qilmaslikka chaqiradi. U inson rosa to‘yib ketmasdan avval qo‘lini taomdan tortishi va ovqat to‘la hazm bo‘lmaguncha ustiga yana yemasligi kerakligini alohida ta’kidlaydi.

Navoiy asarlarida o‘simganlik va ma’danlardan olinadigan sodda dorilar, sharbatlarning hosiyatlari, mayxo‘rlikning inson salomatligiga zarari to‘g‘risida ham ma’lumotlar mavjud. Bu borada u kimki, mayga berilib, unga yopishib olsa, u aql chirog‘iga xiralik beradi, badmast odamga uluksiz ichishdan hech qanday foyda yo‘q, u o‘zidagi odamiylikka qarshi qadax zahar ichadi, deb yozadi.

Navoiyning Abu Ali ibn Sino kishilarning tomir urishini o‘rganish asosida kasallikni aniqlash usulini targ‘ib qiluvchi: tomirini ko‘rib, kasallikni qanday yo‘qotish yo‘lini bildi

va to‘rt-besh kun ichidayoq uni davolab yubordi, degan ma’noga ega she’ri mavjud. Sharobning kam miqdori inson salomatligiga foyda keltirishi to‘g‘risidagi ibn Sino fikri Navoiy ijodida: yashirmay, ko‘p ichish kishi uchun nosozdir, ichishning sharti-maxfiy hamda oz-oz ichishdir, oz ichish hikmatga dalil, berkitib ichish xushyor kishilar uchun hislatdir, deb targ‘ib qilinadi.

Navoiy tabiblarning qanday hislatlarga ega bo‘lishlari to‘grisidagi “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan fiklari juda muhimdir. Uning fikricha, tabib o‘z fani, ya’ni tabobat sohasida bilimdon va kasallarga mehribon bo‘lishi lozim. Tabibning so‘zлari muloyim, o‘zi esa hakimlarning so‘ziga amal qiluvchi va ularga xizmat kiluvchi bo‘lishi lozim. So‘zlagan so‘zida yumshoqlik va dilni xursand kiluvchi, o‘zida esa sharm-u hayo va xushfe’lllik bo‘lishi kerak. Bunday tabibning yuzi bemorning ko‘ngliga yoqimli, so‘zi esa har qanday kasalining joniga orom beruvchidir. Uning bergen har qadamidagi davosi hasta kishilarga shifo yetkizadi.

Navoiyning xozik tabiblarga nisbatan hurmati shu darajada bo‘lganki, hatto u tabibni Iso paygambar bilan yonma-yon qo‘yadi. Uning fikricha, Iso payg‘ambar chiqqan jonin kaytarsa, xushfe'l tabib davo orqali jonning chikishiga to‘sinqinlik qiladi. Ammo tabib o‘z fanida mohir bo‘lsa-yu, badfe'l, bemor uchun beparvo hamda qo‘pol so‘zlovchi bo‘lsa, kasalga bir tomondan davo yotkizsa ham, boshqa tomondan mijoziga, ya’ni kayfiyatiga o‘zgarish yetkazadi. Savodi yo‘q, omi tabib jallooding shogirdi hisoblanadi, jallooding tig‘ bilan, omi tabib esa zahar bilan o‘ldiradi. Tig‘ bilan o‘ldiruvchi jallooding, shubhasiz, omi tabibdan yaxshiroqdir, chunki u gunohkorni o‘ldiradi, omi tabib esa begunohni o‘ldiradi.

Abu Ali ibn Sino asarlarida tibbiyot nazariy va amaliy qismlardan tashkil topishi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Ular orasidagi hamkorlik tabobat fanining rivojlanishida muhim o‘rinni egallaydi. Tabiiyki, Navoiy buni yaxshi bilgan. Shuning uchun va xalq ahvolini yaxshilashga qaratilgan insonparavarlik hissi asosida Hirotda Dorushshifo, ya’ni davolash uyi ochadi. Bu haqda Xondamir «Xulosat ul-abror» («Xabarlarning xulosasi») nomli kitobining «Hirot ichida qurilgan ba’zi imoratlarning zikri» degan bobida yozadi: «Maxdi ulyo Milkat og‘oning Dor ul Xadis va Dorushshifo (binolari) hozirgi paytda hazrat Sulton (Husayn)ning yaqinlari, daryodil, olajanob (Navoiy)ning diqqat e’tiborlari

bilan obodonlikka yuz qo‘ygan». Dorushshifoda o‘z davrining yetuk tabiblari, Navoiyning hurmatini qozonolgan hakimlar ish olib borishgan. Ular uchun shifoxonada barcha shart- sharoitlar mavjud bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, bemorlar uchun dori-darmonlar, yejish uchun ovqatlar muhayyo bo‘lgan. Xondamir «Xulosat ul- abror»ning bir necha joylarida o‘sha davrdagi masjid va madrasalarning ko‘philigidagi uzoqdan kelganlarga tekin ovkat berilganligi to‘g‘risida yozadi. Bundan oddiy dori-darmonlar ham shu tartibda bepul berilgan bo‘lishi mumkin degan xulosa kelib chikadi.

Xulosada sifatida aytish lozimki, Navoiy tabobat ilmi bilan bir qatorda barcha fanlarni rivojlantirishga birdek g‘amxo‘rlik qilgan, fan ahllariga yordam bergen va turli qurilish hamda obodonchilik ishlari bilan xalq ahvolini yaxshilashga uringan. Uning ma’naviy va moddiy ko‘magi rahbarligi o‘z davrining mashhur tarixchilari, shoirlari, musiqashunoslari, naqqoshlari, tabiblari va boshqa soha mutaxassislarning yetishib chiqishiga olib keldi. Bu boradagi Boburning «Alisherbek naziri yo‘k kishi edi..... Axli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy (quvvat beruvchi) ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lgay» ayni haqiqatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baqoyev, Navrozjon (2023). O‘ZBEK TILIDAGI “QO‘L” SO‘ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 414-417.
2. Bakoev, N., & Abdumatalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O ‘ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(17).
3. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA’LIM TIZIMI. Interpretation and researches, 1(17).
4. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGLIFLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 84-87.
5. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. Interpretation and researches, 1(18).

6. Bakoev , N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
7. Шарофиддинов, М. М. (2016). Из истории железной дороги Бухары. Молодой ученый, (9), 962-964.
8. Vokhobjonovna, K. S. (2023). PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF ISHAQ KHAN IBRAT. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(11), 156-159.
9. Vokhobzhonovna, X. S. (2023). THE EVOLUTION OF THE CONCEPT OF ACADEMIC FREEDOM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 365-370.
10. Абдухоликова, Н. А. (2022). ЖАМИЯТ АХБОРОТЛАШУВИНИНГ ИЖОБИЙ САЛБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. Conferencea, 125-129.
11. Абдурасулова, У. (2020). О‘QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 1).
12. Abdurasulova, U. S. (2019). INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(7), 266-270.
13. Mamasodikova, M. (2022). THE CATEGORY OF APPRAISAL IN RUSSIAN ROCK POETRY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 130-133.
14. Мамасодикова, М. Ж. (2024). РУССКАЯ РОК-ПОЭЗИЯ КАК ЛИТЕРАТУРНОЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ. World of Scientific news in Science, 2(1), 403-412.

15. Абдухоликова, Н. А. (2022). Тараба ёшларнинг онлайн алоқа холатининг салбий жихатлари. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 257-261.
16. Abduxolikova Nasiba Alijonovna. (2023). YOSHLARNING IJTIMOIY TARMOQLARGA TOBELIGINI OLDINI OLISH OMLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(1), 176–184. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9902>
17. Шарофиддинов, М. М. (2016). Развитие воздушных путей Узбекистана в годы независимости. Молодой ученый, (12), 717-718.
18. Umida Abdurasulova, & Bakoev Navruzjon (2024). TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Science and innovation, 3 (Special Issue 27), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.11079778
19. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ‘S DISADVANTAGES.«. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА.
20. Собиров, А. Б. Ў. (2022). Ключевые слова в тексте. Science and Education, 3(12), 1182-1187.
21. “Abu Ali ibn Sino She’rlar va tibbiy doston”, Tuzuvchi Abdusodik Irisiov/, O’zbekiston KP Markaziy Komiteti nashriyoti. Toshkent, 1981 y. - 127 b.
22. Mahmud Xasaniy, Surayyo Karimova “Navoiy davri tabobati”. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991 y. 126 b.
23. “Tabobat durdonalari”, Tuzuvchi-tarjimon, izoh va ko‘rsatkichlarni tayyorlovchi M.Xasaniy) Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashr., 1990. 367 b.
24. Bobur “Boburnoma”. Toshkent, Yulduzcha, 1990, 159-160 betlar.